

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYO-BIOLOGIYA FAKULTETI

BIOLOGIYA KAFEDRASI

**SAFOEVA DILFYZA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**TOVUQSIMONLAR TURKYMINING VAKILLARI,
ULARNING BIOLOGIYASI VA AHAMIYATI**

5140100 - Biologiya ta'lim yo'nalishi

Ilmiy rahbar

dots. N.E.Rashidov

Kafedra mudiri

dots. N.E.Rashidov

BUXORO-2014

M u n d a r i j a

	betlar
Kirish.....	3-6
1 - bob. Tovuqsimonlar – Calliformes turkumlari	
xaqida malumot	8- 13
2 - bob.Tovuqsimonlarning tarqalishi,	
biologiyasi va ahamiyati	14-18
2.1. Kaklik – Alectoris chukar.....	14-18
2.2. Bedana – Coturnix coturnix.....	19-21
2.3. Qirg`ovul – Phasianus colchicus.....	22-47
Xulosalar	48-49
Foydalanilgan adabiyotlar.....	50-51

Kirish

Qushlar – pat va parlar bilan qoplangan gomoyoterm amniotalar bo'lib, ularning oldingi oyoqlari qanotga aylangan. Bir qator morfologik, anatomik belgilari bilan o'zgalarning bevosita ajdodlariga, yani sudralib yuruvchilarga o'xshash. Bu o'xshashlik keyingi oyoqlarining barmoqlarida shox tangachalarning borligi bilan, tumshug'ini shox qoplamini bo'lishi va teri bezlarining bo'lmasligida, terini quruq bo'lishida ko'zga yaqqol namoyon bo'ladi. Qushlarning miya qutisi diopsid tipda. Ammo ustki yoy redukstiyalangan, ensa bo'rtmasi bitta bo'ladi. Yana sudralib yuruvchilardagidek suyaklar ham mavjud. Oyoqlarida interkanal va intertarzal bo'g'imlar xosil bo'lgan. Qovurg'alarida ilmoqsimon o'simalari bor. Yurakdan arterial qon o'ng aorta yoyi orqali chiqadi. Periferik qon aylanish sistemasi reptiliyalarnikiga yaqin. Ayirish sistemasining tuzilishi va embrional rivojlanishida ham o'xshash jihatlari bor.

Ammo, evolyutsiya davomida ayrim qayta hosil bo'lgan morfologik belgilari qushlarning deyarli barcha organlar sistemasini o'zgartirgan va organizmda fiziologik jarayonlarning yuqori darajada borilishi, jadallashishini taminlagan. Natijada hayot faoliyatining umumiy darajasi kuchaygan va shu asosda havoni egallash, uchish uchun keng, qulay imkoniyat yaratilgan. Xuddi shunday qushlarda yer yuzasida yurish, daraxtlar uchida yurish, saqlanish va bir qancha turlarda esa suvda, uning yuzida harakatlanish ham saqlangan. Qushlarning hatti – harakatlari ancha murakkablashgan, takomillashgan, xilma – xillashgan, tur ichidagi o'zaro munosabatlar va muhit bilan aloqadorlik qilish ham tarkib topgan.

Qushlarni sudralib yuruvchilardan ajralib turuvchi morfologik va boshqa xususiy belgilari ham ko'p, turlicha. Yana organizmda, issiqlik almashinuvini boshqaruvchi va gavdani qulay kompakt ixchamligini taminlovchi par va patlar bilan qoplanganligini aytish joiz. Uchganda patlar yoyiq shaklga kiradi. Ayniqsa, qanot, dum patlarida bu holat xarakterli.

Oldingi oyoqlarni qanotga aylanishi ular skeletida, muskul tizimida, yelka kamarida ancha yangi tizimlarni paydo qilgan. Ayni holda orqa oyoqlari va chanoq kamari skeleti, muskullar orasidagi o'zgarishlar yerda yurish, suvda suzish, sho'ng'ish uchun imkon beradi. Suyaklarning pnevmatizastiyalanishi (g'ovakligi, o'zida havoni saqlashi) ularni mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Umurtqalarning geterostel tipdaligi tananing bo'yin qismi, boshini harakatchan bo'lishini keskin oshirgan. Sezgi organlari – eshitish, ko'rishning funkstional ahamiyati kuchaygan. Bosh miyaning progressiv rivojlanishi fazoda mo'ljal olishni imkonini kengaytirgan, etologik xususiyatlarni jadallashtirgan, chunonchi individual tajriba rolini oshishiga olib kelgan, shu asosda murakkab shartli reflekslar paydo bo'lgan. Tumshuqning funkstiyasi kuchaygan, qushlarda tishlar redukstiyalangan bo'lsa ham, oziqaviy ixtisoslashish turli – tuman tus olgan va istemol qilinadigan oziqalar spektrini kengaytirgan.

O'z navbatida ovqat hazm qilish sibelasida yangi, katta tuzilishlar – mus-kulli oshqozonning alohidalanishi, ichakning uzunlashishi va boshqa xossa-lar ovqatni hazm qilishni ancha yaxshilagan. O'pka va havo xaltachalari, ular o'rtasidagi munosabatlar nafas olishni jadallashtirgan. Katta va kichik qon aylanish doiralarining to'liq ajralishi bilan xujayra, to'qima organlarning kislorod, oziqa moddalari bilan taminlanishi va is gazi parchalanishi mahsulotlarini ayirish yaxshilangan.

Nafas olish, qon aylanishi va ovqat hazm qilishni kuchayishi oqibatida moddalar almashinuvi ortgan, tanada hosil qilingan issiqlikni saqlash, uni chiqarishni tartibga keltiruvchi fizik va kimyoviy termoregulyastiya mexanizmlari shakllangan. Natijada qushlarning tashqi muhit temperaturasiga nisbatan ekologik valentligi yuqori bo'lgan. Uya qurish, tuxumni bosishi, jo'jalarni oziqlantirishda ota – ona qushlarning roli ko'paygan. Nasl uchun qayg'urishning kuchayishi ontogeneznining boshlang'ich etaplarini davom etish muddatlari bir muncha qisqargan, embrional o'lish darajasi kamaygan.

Yuqorida aytilgan qushlar uchun xos xususiyatlar ularni yer sharida keng tarqalishiga olib kelgan va amalda qushlar quruqlikdagi barcha yashash joy-larini egallagan, bir qismi suv hayot muhtini tanlagan, unga nisbatan moslashgan.

Shu bilan birga urchishga chuqur ixtisoslashish sinf darajasida adaptiv radiastiyani cheklashishiga olib kelgan. Qushlar orasida yer ostida yashovchi va doim suvda yashovchi turlarni yo'qligi buni tasdiqlaydi. Qushlarning katta – kichikligida (razmerida) farqlar uncha katta emas. Buni qushlarni sut emizuvchilardagi holat bilan taqqoslaganda payqash qiyin emas.

Qushlarni klassifikastiyalash sohasida hozirgacha umumiy deb qabul qilingan sistema yo'q. Shuning uchun turli tadqiqotlar sinfda turlar sonini har xil qilib ko'rsatadilar. Chunonchi, universitet talabalari uchun yozilgan yangi darsliklarda (Konstantinov, va boshqa, 2004; Laxanov, 2005) keltirilgan sistematikada tafovutlar bor. Masalan, birinchi darslikda qushlar sinfini 2 ta kenja sinfga ajratgan (qadimgi qushlar kenja sinfi va yelpig'ichdumlilar, yoki haqiqiy qushlar kenja sinfi). Ikkinchi darslikda (Loxanov, 2008) esa faqat bitta kenja sinf – tipik qushlar kenja sinfi tilga olingan. Bunday holat turkumlar sonida ham ko'zga tashlanadi. Shunday bo'lsada sinfdagi kenja sinflar, turkumlar berilishi birinchi darslikda (Konstantinov va boshq. 2004) to'liqligicha o'xshaydi.


Shunday qilib hozirgi yashab turgan qush turlarining soni 8600 tani tashkil etadi. Bu turlar asosan tipik qushlar kenja sinfining pingvinglar, ko'krak tojsizlar, tipik qushlar (ko'krak tojlilar) degan katta turkumlarga mansub.

Mening bitiruv malakaviy ishim tovuqsimonlar turkumi, uning O'zbekistondagi vakillarining biologiyasi va xilma – xilligiga bag'ishlangan, men o'z ishimda quyidagi rejalarga to'xtalaman:

- Qushlar, tovuqsimonlar turkumiga doir umumiy malumotlarni o'rganish;
- O'zbekistonda tovuqsimonlarning turlari haqida;

- Ayrim turlarining tarqalishi, biologiyasi va ahamiyati;
- Tovuqsimonlarni ko'paytirish, muhofaza qilish masalasi;

Bitiruv ishimda keltirilgan malumotlar asosan ilmiy, o'quv adabiyotlardan olingan. dala malakaviy amaliyoti, kafedradagi materiallardan ham foydalanilgan.



1 – bob. Tovuqsimonlar – Calliformes turkumi xaqida malumot

Tovuqsimonlar turkumi qushlarning qadimgi guruhi bo'lib o'ziga xos tarzda shakllangan va yer sharida keng tarqalgan, 250 ta turlarni birlashtiradi. Ko'pchilik vakillarining vazni o'rtacha massali bo'lib, o'ta yirik va kichik vaznlilari kamroqdir. MDX dagi eng kichik turi – bedona bo'lib uni vazni 80 – 120 gramm keladi, eng yirik vakili *karqur* to 6 kg gacha keladi.

Tovuqsimon qushlarning tashqi qiyofasi quruqlik sharoitida hayot kechirishga moslashgan. Bu xususiyat tovuqsimon qushlarning ko'pchilik vakillari uchun xarakterlidir. Tana tuzilishi ancha zich bo'lib, boshi biroz kichik, bo'yni kalta va tumshug'i biroz qavariq (bo'rtiq) bo'lishiga qaramai kuchlidir. U ko'proq dag'al o'simlik oziqlarini yer yuzasidan tutishga, topishga va daraxt – butalardan olishga moslashgan. Qanotlari kalta va keng bo'lib tezlik bilan tik ko'tarilishiga ancha qulaylik tug'diradi. Bu xolat quruqlikdagi, ayniqsa o'rmonda yashovchi qushlar uchun muhimdir.

Tovuqsimonlarning uchishi ancha tez, ammo og'ir bo'lib ko'p vaqt qisqa masofada namoyon bo'ladi. Uzoq masofada uchish migrant turlarga xos bo'lib, masalan bedanaga xosdir. Bedananing qanoti boshqa tovuqsimonlarnikidan tuban bo'lmasligi bilan ajralib turadi. U biroz o'tkirroqdir. Odatda qush uchganda birdan tovush bilan ko'tariladi. Malum balandlikga yetgach to'g'ri chiziq bo'yicha uchadi. Bu vaqtda parvoz va qanotlar qoqishi navbatlashib turadi.

Tovuqsimonlarning oyoqlari o'rtacha uzunlikda bo'lib o'tkir, mustahkam kuchli kalta barmoqli tirnoqlidir. Bular yordamida ko'pchilik turlari ovqat izlab er yuzni tirnaydi, kovlaydi. Ayrim tovuqsimonlarda (qirlarda) barmoq chetlari bo'ylab shox plastinkalar bo'ladi. Bular daraxt shoxasida saqlanishda qor qoplamli yerda yurish uchun muhim ahamiyatli. Tovuqsimonlar yerda yaqin yuradi va yuguradi, xatarli vaziyatda esa xavoga ko'tariladi, uchadi.

Tovuqsimonlarning patlari mustahkam va qattiq. Patlarida ortiqcha o'q yaxshi rivojlangan, faqat u gaostinda bo'lmaydi. Ko'p turlarida jinsiy dimorfizm namoyon. Buni pat va parlarini rangida va qushlarning kattaligida sezish mumkin. Ko'pincha xo'rozi yirikroq, chiroyliroq bo'ladi.

Tovuqsimonlar tundra, o'rmon, dasht, cho'l tabiat zonalarida yashab turli landshaft va biotonlarda uchraydi. Ayrim turlari madaniy landshaftda odamlar bilan yonma – yon yashab ham biladi. Ular vertikal tarqalishda past tekisliklardan to alp tog` zonasigacha yashaydi, uchraydi. Turkumning ko'p vakillari erda hayot kechiradi. Ayrim turlari daraxtlarda yashaydi oziqlanadi ammo uy asini yerda yasaydi. Faqat gokko va goastinlar doim daraxtda yashaydi xolos.

Turlarining asosiy qismi yarim o'troq yashaydi. Uncha katta bo'lmagan masofalarda ko'chib yuradi. Faqat bedonalar migrant bo'lib, uzoq masofaga uchadi, ayrimlari esa (Kuropatka) yaqin masofaga migratsiya qilishi malum.

Tovuqsimonlarning kichik, o'rtacha kattalikdagi turlari jinsiy balog`atga bir yoshida yetsa, yiriklari biroz keyinroq voyaga etadi va urchishga kirishadi.

Tovuqsimonlarning quyisi poligam bo'lib, juft hosil qilmaydi. Xo'rozlar nasl uchun qayg`urmaydi. Ana shunday turlarida jinsiy dimorfizm yaxshi rivojlangan. Xo'rozlarning patlari tiniq, chiroyli, o'zi esa mokiyanidan albatta yirik bo'ladi. Ayrim turlari monogam, juft hosil qiladi. Bunday turlarda nasl uchun ota – onasi g'amxo'rlik qiladi, pat – parlari bir xil tusda bo'ladi, yani farq qilmaydi.

Poligam turlarda qaqag`lash davrida guruhlar shakllanadi. Xo'rozlar bu davrda uning har xil qiyofada tutadi, o'ziga xos tovush chiqaradi va boshqa xo'rozlar bilan tortishadi, urushadi.

Ko'p tovuqsimonlar uyasini yerda yasaydi. Uyasi sodda ko'rinishda, yani tuproqni biroz kovlash bilan yasaladi. Unda bazan o'simlik shoxchalari to'shaydi, o'zini patlarini ham to'shashi mumkin. Oxirgi xolat tuxumni bosish davrida ko'zga tashlanadi.

Tovuqsimonlar bir yilda bir marta tuxum qo'yadi. Faqat bedana, kakliklarda arealning janubida ikki marta tuxum qoyishi mumkin deb taxmin qilingan. Uyadagi tuxumlar kichik, soni 4 tadan to 25 tagacha oq – chipor bo'ladi. faqat gakkko, goastinlarda uyadagi tuxum 2 – 3 ta bo'ladi. Tuxum bosish davri tovuqsimonlarda uncha ko'p emas, turli turlarda u 12 kundan 30 kungacha. Palaponlarning rivojlanishi jo'ja ochuvchilar tipida boradi. Tuxumdan chiqqan jo'jalar jun bilan qoplangan bo'lib bazi turlarda tezda uyani tark etsa, ayrimlariniki 1 sutkadan ko'proq vaqtdan keyin uyani tark etadi. Jo'jalarning rivojlanishida qanot, patlarining erta o'sishi xarakterli. Shu bois patli jo'jalarni patirlaydi keyin esa ishonya bilan ucha oladi ham bundan faqat gokko istisno. Umuman jo'ja-larning tez orada pat bilan qoplanishi xarakterli bo'lib, tovuqsimonlarning yosh bolalari kuzda katta qushlar patlari bilan almashinadi.

Tovuqsimonlar bir yilda bir marta to'liq tulaydi. Bu hodisa kuzda ko'payish davri tugagandan keyin ro'y beradi. Bundan tashqari qirlarda bahorgi, urchishdan oldin qisman xolda tulash ham bor. Buni biz ayrim qirg'ovullarda ham ko'ramiz.

Shunday qilib bu qushlarda ikkita mavsumiy pat – parlar bilan qoplanish, ko'rinish uchraydi: qishgi va yozgi. Oq qora patlarda esa tulash hodisasi alohida ro'y beradai. Bularning xo'rozdagi bir yilda 4 marta mokiylonlari esa 3 marta tulaydi. Bular patlarning mavsum bilan bog'liq almashishiga mos keladi.

Tulashda patlar asta sekin almashinadi. Qushning harakatchanligi biroz pasayadi, ammo uchish qobiliyatini yo'qotmaydi.

Ayrim turlarda to'liq tulash vaqtida faqat patlar emas, balki shox qoplamlari, tirnoq'lar, barmoqlardagi shox plastinkalar, shokilalar, tumshuq yuza qavati ham almashadi. Boshqalarda, masalan ovqat izlaganda tumshuq, oyoq barmoqlarini ishlatuvchi qirg'ovulsimonlarda shox qatlamida doim charxlanib, tiklanib turadi. Buni asosida o'sishning uzuksizligi turadi. Tovuqsimonlar ko'p vaqt erdagi o'simlik oziqasi bilan oziqlanadilar. Hayvon oziqalari ular uchun qo'shimcha hisoblanadi. Albatta yosh qushlar oziq ratsioni ular uchun sezilarli o'rinda turadi.

Turli turlarning oziqasini tarkibi har xil, u mavsum bilan bog'liq holda keskin o'zgarib turadi. Chunonchi qirlar qishda kurtaklarni, daraxt - butalar po'stlog'ini yyeydi, yozda esa turli mevalarni, barg va urug'larni, hasharotlarni yeydi. Qirg'ovulsimonlar doim yerda oziqlanadi. Bunda ular turli mevalarni, barg va urug'larini, buta va o'tlarning gulini, tugunak, piyozboshlarini va umurtqasizlarni yyeydilar. O'simliklarning yer osti qismini, tuproq hasharotlarini tumshuq va oyoqlari bilan kovlab oladilar. Buni ular yerni tirnagan, kovlaganda qoldirgan izlaridan ham bilsa bo'ladi.

Tovuqsimonlarning xo'jalik ahamiyati nixoyatda katta. Ularning go'shini mazaliligi sanoat qushlari darajasiga ko'tarilgan. Xuddi shunday sport ovi manbai hisoblanadi. Bu sohada, ayniqsa kushlarning o'rni alohida ryabchik, qir, qarqur, oq va tundra kuropotkalari ovlanadi. Qirg'ovulsimonlardan sanoat va sport ovida qirg'ovul, bedona, kulrang va mo'ylovli kuropotkalar ko'zga ko'rinarli o'rinda turadi. Har yili tovuqsimonlarning go'shti ichki bozorga tushib turadi va eskilari ham qilinada.

Ov xo'jaliklarida ularni oson iqlimlashtirish, ko'paytirish mumkinligi tovuqsimonlarni ahamiyatini yana oshiradi. Masalan: qirg'ovullarni Yevropaning ko'p qismidagi xiyobonlarda xatto Amerikada ko'paytiradilar namlik kaklik, Amerika, Xindiston va Yangi Zelandiyaga keltiriladi. Amerikada kulrang kuropotka yaxshi ko'paymoqda. Bunday ishlar kaklik, bedona, qirg'ovul misolida O'zbekistonda va qo'shni

mamlakatlarda ham amalga oshirilmoqda. Agar tovuqsimonlarni iqlimlashtirish to'g'ri, ilmiy asosda amalga oshirilsa ov xo'jaliklarida qimmatli ov-sport qush turlarini ko'paytirish, undan foydalanish mumkin.

Tovuqsimonlarning ko'pisi, ayniqsa, qirg'ovullar, kuropotkalar qishloq xo'jaligi uchun zararli hasharotlarni eb foyda keltiradi. Tovuqsimonlar uy parrandachiligining manbai sifatida aloxida qimmatga ega. Yevvoyi turlar turli – tuman go'sht, tuxum, pat beruvchi xonaki zotlarni chiqarishda katta rol o'ynagan, xozir ham shunday. Tovuqsimonlar vakillari: tovuqlar, indyuk, (kurka)lar sesarkalar parrandachilikning asosi xisoblanadi.

Tovuqsimonlar juda ham keng arealga ega. Ularni faqat Antarktika, Yevrosiyaning, Amerikaning shimoliy orollari, janubiy Amerikani

Hozirgi vaqtda tovuqsimonlar turkumiga qushlarning 250 turi kiradi. Yana 108 turi qazilma holatda topilgan, malum.

Bu turkum 2 ta kenja turkumga (gaostinlar va haqiqiy tovuqsimonlar) bo'linadi. Gaostinlar kenja turkumida bitta oila, tipik tovuqsimonlar kenja turkumida 4 ta oila (xastovuqlar, gokko, qursimonlar, qirg'ovulsi-monlar) mavjud. MDX da tovuqsimonlarning 20 turi, O'zbekistonda esa 7 turi yashaydi .(Ular, kaklik, cho'l, ko'k kuropatkalari, bedona, qirg'ovul). Malakaviy Ishda ularning asosiy keng tarqalgan turlari – kaklik, bedana, qirg'ovul haqida to'xtalamiz.

2 – bob. O'zbekiston tovuqsimonlari: tarqalishi, biologiyasi, va ahamiyati

2.1. Kaklik - *Alectoris chukar* Cerey.

Bu qushning areali ancha keng bo'lib unga Janubiy Yevropa, Old Osiyo, va Markaziy Osiyo kiradi. Areal doirasida nuqul tog'larda yashaydi. Kattaligi bo'yicha Zaxchadan biroz yirik qush. Vazni 370 – 770 gramm o'troq yashaydi. Faqat qish tushishi bilan vertikal yo'nalishida ko'chuvchi ham. Tashqi ko'rinishidan to'qpusti, kulrang tus ustun. Tomog'ida qora dog' bor. Tanasining yon tomonida ko'ndalang keng qora – malla rang ko'zga yaxshi tashlanadi. Tumshug'i va oyoq – barmoqlari qizil, oyoqlari kuchli muskulli. Juda sezgir, tez yuguradi toshloq bo'ylab. Biram tez ucha oladi, qisqa masofada, yana tosh – qoyalarda yashirinadi butun hayoti davomida yerda yuradi, yashaydi, kamdan – kam hollarda buta, daraxtga o'tiradi. Oziqlanib tik qoya tomon tez yuradi, yuguradi. Ammo xech vaqt pastga tomon yugurmaydi.

Kaklik har xil tovush chiqaradi, ko'proq tovushi „ke – ke – lak , ke - ke-lak” manosini beradi. Shuning uchun unga kaklik nomi ham berilgan.

O'zbekistonda kaklikning 3 ta kenja turi uchraydi. Ularni tog'larda (Chatqol, Ugam, Pisken, Chimyon, Turkiston va Zarafshon tizma tog'lari, Hisor, Boysun, Qizilqumdagi qoldiq tog'lar, Nurato, Bobotog') yashashi haqida ilmiy adabiyotlarda („Ptisty Uzbekinstana”, 1987) malumotlar bor.

Banozda tog'lardagi qor erishi bilan kakliklar pastdan yuqoriga ko'tariladi. Kuzda esa pastga tomon ko'chishi noyabrning ikkinchi yarmida ro'y beradi. Yashash biotik – bu toshloq qoyalarning janubiy qismi kam butali tog' yon bag'rlaridir. Masalan: Chotqol tog'laridagi janubiy qoyalarda 72 % kaklik uchratilgan. Kaklikni soni turli tog'larda, hatto muayan tog'da ham sharoit bilan bog'liq holda har xil bo'ladi. Archazjrlarning yuqori qismida kamroq, pastida esa ko'proq uchradi.

Kaklikni soni Turkiston tizma tog`larida 1 km<sup>2</sup> da 5 – 7 juft to`g`ri keladi. Kuzda ular gala hosil qiladi, shu sababli yirqichlardan himoyalaniishi uchun bolalarini o`zi bilan olib yuradi. Har bir galasida 60 – 140 ta kaklik bo`ladi. Erta bahorda yirik guruhlar maydalashadi (8 –14 ta).

Martning boshidan to mayning oxirigacha ularni sayrashi eshitiladi. Kakliklar juft hosil qilgan uya qurish, tuxum qo`yishiga kirishadi. Uyalari turli joy va turli sharoitlarda bo`ladi (toshlar kovaklarida, butalarning asosida, bo`shliqlarda va boshq.). Uyasi oddiy chuqurchani eslatadi. Uni ostiga xos – go`shalar to`shaydi. Uyasining o`lchamlari: uyani eni – 12 – 15 sm, eni – 8 – 10 sm, chuqurligi – 10 – 12sm.

Kaklikning ertangi tuxumli uyalarini martning oxirida uchratsa bo`ladi. Ko`p urg`ochi kakliklar orasida tuxum qo`yadi. Uyadagi tuxumlar soni 11 – 20 ta bo`ladi. Tuxumning o`lchami: 37 x 24,5 mmdan to 43,0 x 26,5mm gacha bo`ladi. Tuxumi oq va dog`li bo`ladi. Dog`lari tiniq jigarrang tusga bo`lib tuxumning paynak qismida ko`proqdir.

Tuxumlarni bosish bir oyga yaqin davom etadi. Asosan urg`ochisi bosadi. Erkagi uyani qo`riqlashda, urg`ochisini suvga borishda kuzatadi. Bazan erkak kaklik ham tuxumni bosadi.

Kakliklar bir yilda 1 – 2 marta tuxum qo`yadi. Kaklikning tuxumli uyalari to iyunning oxirigacha topiladi. Tuxum qo`yish muddati vertikal mintaqalilik bilan bog`liq. Yani yuqoridagi kakliklar kechroq, pastdagilari esa ertaroq tuxum qo`yadi.


Har bir oiladagi jo`jalar soni 8 – 19 ta bo`ladi. Bedonadek kattalikdagi jo`jalarni 30. iylda qayd qilingan.

Kaklik asosan o`txo`r qush, Turkiston tizmalarida yozda uning oziqasi tarkibida 38 tur o`simlik topilgan. Hasharotlardan qo`ng`izlar, chumolilar, stikadalarni ham yeydi. Bahorda shirali o`simliklarni yaxshi yeydi (bargi, gulbandi, poya va boshq.). Eozda turli mevalar bilan oziqlanadi. (gilos namatak, piyozbosh, tugunak va boshq.). Kuzda kakliklar o`simlik urug`la-

rini, mevalarini xush ko'radi (Yaltirbosh, qo'ng'irbosh). Qishda bargi o'suvchi o'simliklarni yyeydi, tirik, yo'sin, xvosh va boshqalarni yeydi. Etuk kaklik oziqasida hayvon oziqalar kam bo'ladi. Faqat jo'jalarni ovqatlantirish davrida kakliklar xasharotlarni yaxshi yeydi.

Kaklik – sport ovi obekti sifatida ancha ko'p ovlanadi. Masalan Oqcha ov xo'jaliklrida (Tirkvo) bir yilda 7 – 12 mingta kaklik ovlangan. Kuzda bu erdagi kakliklar soni 30 – 45 mingtaga etadi (ov xo'jaligini maydoni 64.000 ga).

Tog'larda kakliklarni ovlash keng tarqalgan bo'lib ko'p ovlanadi. Shuning uchun uni soni cho'ldagiga nisbatan tog'larda ancha kamaygan.



O'rta Osiyoda kaklikning tarqalish areali:

1. Uya qo'yishi

2. Qishki uchrash joyi

2.2. Bedana - Coturni coturnika U.

Bedona tovuqsimonlar turkumidagi eng kichik qush. Uning vazni 73 – 134 gramm keladi. Deyarli erda yashaydi. Onda – sonda to'satdan vaziyat bilan bog'liq holda birdan uchadi. U ko'pincha o't – o'lanlar orasida yashirinadi, oziqlanadi. Ko'rinishi bilan kichik tovuqchani eslatadi. Dumi qisqa. Patlarining rangida qo'ng'ir, qizg'ish va kremsimon tuslar ko'p bo'ladi. Ular ko'ndalang yo'lli va dog'lar shaklida namoyon. Tomog'ida qizg'ish yoxud qo'ng'ir – kulrang dog'i bor. Tumshug'i tiniq shoxsimon rangda. Oyoqlari biroz qoramtir tusda bo'ladi. urg'ochisi bo'rroq, uncha tiniq emas. Xavf tug'lsa yugurib, qochib qoladi, kam hollarda shovqin chiqarib uchadi. Tez uchadi. Uning sayrash, tovushi: „patpaloq, vovoq, patpaloq” tarzida eshitiladi.

Bedonaning areali brnecha qismdan iborat. Asosan Yevroosiyo bo'lib Britaniya orollaridan to Mongoliya, Yaponiya va Koreyagacha bo'lgan xududda tarqalgan. Qozog'iston va O'rta Osiyodagi mamlakatlarda ham uchraydi. Bu region uchun bu qush uya qiluvchi, uchib o'tishda uchrovchi va qisman qishlovchi tur hisoblanadi.

O'zbekistonda tekisliklar va tog'larda tarqalgan. Cho'lda uya qilmaydi. Uni uya qilish joyi asosan tog' va tog'oldi rayonlari hisoblanadi. Vertikal tarqalish O'zbekistonda dengiz satxidan 1600 – 1800, M, eng yuqorisi to 2700 – 3000 m gacha boradi.

Bedonaning soni regionda har xil. Cho'l va baland tog'larda kamroq, daryo bo'ylarida, tog'oldi hududlarda esa ko'proq sonli bo'ladi. Qulayroq yerlarda 1 km. da 24 tani, noqulay bo'lsa unda 5 – 16 tani tashkil etadi. Masalan: Toshkent vohasida uni soni 1 km. da 20 taga Qizilqumda esa 9 taga teng keladi (Rustamov, 2007).

Bedonaning ko'p omillarga, jumladan ob – havoga ham bog'liq. Kutilmagan sovuq, kuchli yomg'ir ularni o'limga etadi.

Bedonaning dushmanlari ham ancha. Ularga, yirtqichlar (sutemizuvchilar, qushlar), reptiliyalar (echkemar, turli ilonlar) tashlanadi, ovlaydi. O't o'rilishi, bug'doy o'rimida ham ko'p bedona nobud bo'ladi.

Bedonaning baxorgi migrastiyasi martning uchinchi dekadasi boshlab aprel, maygacha davom etadi. Kuzgi migrastiyasi esa ancha yaxshi namoyon bo'lib, uni avgustning o'rtalaridan to noyabrgacha kuzatsa bo'ladi.

Bedonalar tropik Afrikada (to Ekvotorgacha), Arabiston va Xindistonda qishlaydi. Kamroq bedonalar o'rta Osiyoda (Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston va boshq) ham qishlash qayd qilingan.

Bedona poligam tur xisoblanadi. Uning erkagi to'g'ri kelgan urg'ochisi bilan qo'shiladi. U deyarli juft hosil qilmaydi.

O'rta Osiyo past tekisliklarida bedonaning sayrashi aprelning o'rtalaridan boshlab eshitish mumkin. Shunda erkagini tovushini eshitgan urg'ochilari unga tomon keladi va – erkagi ular bilan qo'shilishi mumkin.

Urchish davri ancha cho'ziq. Bunga ko'p omillar tasiri bor. Yani gonadalar rivojidagi notekislik, ayrim qushlarni takror uya qurishi, va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Aprelning oxiridan to avgustgacha – tuxumli uyalari topilgan (Rustamov, 2007).


Bir uyasidagi tuxum soni 7 – 14 ta o'rtacha 9 taga teng. Tuxumlarning o'lchamlari: 26,0 – 28,0 x 21,0 – 23,0 mm. Tuxum bosish davri 15 – 20 kun bo'ladi. Tuxumdan chiqqan jo'jalari to 50 kungacha ota – onasi bilan birga bo'ladi. Keyin tarqalib ketadi.

Jo'jalarning o'sishi yoz davomida ro'y berib, uni ularni vazni, o'zgarishidan ham bilib olsa bo'ladi. Chunonchi: adabiyotlarda bedona jo'jalarini vazni iyulda (Olma – otada) 38 – 80gr, avgust oxirida esa 40 – 100gr, oktyabrda 100 – 118gr kelgani aytilgan (Rustamov, 2007). Jo'jalari 50 kunlik vaqtda kontur patlar bilan yaxshi qoplangan bo'ladi. shu vaqtdan boshlab ular yaxshi uchadilar.

Bedonalarda tulash hodisasi juda ham cho'zilgan, notekis ro'y beradi. Jo'ja patlarini birinch almashinishini – kuzda ro'y beradi. Katta yoshli qush-larda har yili tulash yunning ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Bedonalar yoz – kuz davrida ko'proq o'simlik oziqani yeydi. Hayvonlarni kam yeydi. Yem bedonalar mayda xasharotlar, qurt, lichinkalar g`umbak bilan oziq-lanadi. Umuman oziqa spektrida urug`lar, o'simlik qismlari ustundir. Bedo-nalarni faol bo'lishi ko'proq ertangi vokechki soatlarga to'g`ri keladi. Kun-ning issiq vaqtida dam oladi.

O'rta Osiyo, O'zbekistonda o'tmishda bedonalar sanoat miqyosida ov obekti bo'lgan. Bir ovchi kun davomida 50 tasini ovlagan. Hozirgi davrda u sport ovi obekti bo'lib qoldi. Bedonani uyada, qafasda ham saqlaydilar. Sayroqi dekorativ qush hisoblanadi. „Bedonalar jangi” ko'rinishida ham bu qush malum ahamiyatga ega. Yana bedonalar zarakunanda hasharotlarni ovlab bizga ancha foyda keltirashini ham etiborda saqlash lozim. Uni ovlash mumkin. Ammo bu ish ilmiy asosga ega norma, qoidalar orqali amalga oshirish maq-sadga muvofiq.



O'rta Osiyoda bedananing tarqalish areali: 1. Uya qo'yishi, 2. Yozgi uchrash joyi, 3. Bahorda uchib o'tish joyi, 4. Kuzda uchib o'tish joyi

2.3. Qirg'ovul - *Phasianus colchicus* U.

Qirg'ovul turi doirasida 30 ta kenja turlari borligi ma'lum (Stepanyan, 1990). O'rta Osiyo qirg'ovulning 8 ta kenja turlari geografik izolab xolida uchraydi. Bular: Yettisoy, Zarafshon, Amudaryo, Xiva, Tojik, Murg'ob va

Fors qirg`ovullari deb nomlangan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi xududida 6 ta kenja turi yashaydi. Quyida ana shu kenja turlar haqidagi malumotlarni keltiramiz.

Zarafshon qirg`ovuli. R. S. Zerafschonicus tarn.

Bu kenja tur qirg`ovullar Zarafshon vodiysi bilan Qashqadaryoning Shahrisabz va Kitob rayonlari atroflaridagi to'qayzorlarda yashaydi. Zarafshon qirg`ovulini bazan tog` daralarida ham uchratish mumkin.

Zarafshon va Qashqadaryo vodiysidagi qirg`ovullar keyingi yillarda juda kamayib ketdi. Ayrim joylarda uni topish amri mahol. Shuning uchun 1959 yili Samarqanddan 12 km narida Zarafshon zakaznigi tashkil qilingan edi.

Xiva qirg`ovuli R. S. Chrysomelos sev.

Qirg`ovulning bu turi Xorazim va Qoraqalpog`istonda tarqalgan bo'lib, Amudaryo vohasi daryo irmoqlari va o'zlashtirilgan yerlarda, orol dengizi bo'ylarida yashaydi.

Tojikiston qirg`ovuli. P. C. Bianchii but.

Bu xil qirg`ovulni Surxon vohasining To'ralang daryosi irmog'i boshlanadigan joydan tortib Amudaryogacha bo'lgan maydonlarda uchratish mumkin. Bu yerlarda ham qirg`ovul kamayib ketayotganligini ko'zda tutib, 1962 yilda yo'qolib borayotgan bazi hayvon va parrandalarni, jumladan, qirg`ovulni saqlab qolish hamda ko'paytirishi maqsadida konfrensiya tashkil etilgan edi.

Sirdaryo qirg`ovuli. P. C. Turcestaincus lorenz.

Angeren, Sirdaryo va Chirchiq daryolari bo'yilarida hamda Farg`ona vodiysida yashaydi. To'qayzorlar va qamishzorlarning o'zlashtirilishi, shuningdek surinkasiga ov qilinganligi oqibatida bu yerlarda qirg`ovul haddan tashqari kamayib ketdi. Qushning butunlay qirilib ketmasligi maqsadida ular bor joylarda, shu jumladan, Chinoz rayonida Oqqum zakaznigi, Dalvorzin hamda Oqchinda Turkiston Harbiy okruglarining ov xo'jaliklari barpo etilgan.

Qirg`ovullarning hamma turiga xos biologik ma'lumotlarni eslatib o'tish kerak.

Amudaryo qirg`ovuli P. C. Zarudnyi but- bu o'troq yashaydi.

Semirecheps qirg`ovuli P. C. Mongoligus branat ham o'troq yashaydi.

Biotop. Yuqorida aytilgandek, qirg`ovullar asosan chakalakzor va butazorlarda, ko'l va daryo bo'ylaridagi qamish qalin o'sgan pana joylarda yashab, bog`, shuningdek, bug`doyzor va bedazorlarga, supurgi o't bosib yotgan joylarga ovqat qidirib boradi. Bulardan ko'rinib turibdiki, qirg`ovul yopiq, pana joylarda hayot kechiradigan beozor parranda.

Erkak qirg`ovul qichqirgani tong yorishmasdanoq eshitish mumkin. Lekin ular barvaqt qichqirgani bilan joyidan jilmay, kun yorshishini poylaydi. Qirg`ovul dastavval qorin to'ydiradi. Yaqin atrofdagi bug`doy, arpa, mosh va paxta ekilgan maydonlardan o'ziga ovqat topadi. 2 – 3 soatlardan keyin shu yaqin oradagi daryo yoki ko'lga borib, chanqog`ini bostiradi. Kun qizidi deguncha, soya – salqin joy topib dam oladi. Xo'roz, tovuqlarga o'xshab tuproqqa bulg`anishni yaxshi ko'radi. Kun botib harorat birmuncha pasayganda qamish qalin o'sgan joyda tunashadi, bordiyu, bunday joy bo'lmasa daraxt yoki butalarga chiqib olishadi.

Qirg`ovul yovvoyi qush bo'lsa ham yaxshi ucha olmaydi. Mabodo biror xavf – xatar ro'y bersa yoki dushmanini ko'rib qolsa qochadi, kutilishiga ko'zi etmasagina 2 – 3 m balandlikka uchadi.

Ko'payishi. Qirg`ovullarning urchish vaqti erta boshlanadi. Fevral oyining birinchi o'n kunligida erkak qirg`ovul aprel oylaridan qo'narg`a, yani o'z makiyonini chaqiradigan joy hozirlay boshlaydi.

Mart oyi o'rtalari va aprel boshlarida to'qayzorlarga borib qolgan odamning qulog'i qirg`ovullarning qichqirig`idan qomatga keladi. Ular bazan (ayniqsa bulutli kunlarda) 12 – 14 soat davomida betinim qichqirishi mumkin. Kunlar isishi bilan xo'rozi erta tongdan kechgacha chulg`ilay boshlaydi (makiyonini chaqiradi). Makiyon qirg`ovullarni mart oyining oxirigacha – 3 –

4 tadan to'p – to'p bo'lib yurganlarini ko'rish mumkin. Aprel oyining birinchi o'n kunligidan boshlab erkak hamda urg'ochi qirg'ovullar juft bo'lib yurishadi. Qo'narg'a joylarda juft holda yashayotgan qirg'ovulni ko'rish mumkin. Chug'ilash paytida makiyon qirg'ovul faqat bitta erkak qirg'ovul chaqirig'iga javob beradi. Shunisi qiziqki, bir paytning o'zida bir nechta xo'roz qichqirsa ham, makiyonlar o'z juftlari ovozini bimalol tanib oladi.

Qirg'ovullar qamish osti va o't qalin o'sgan joylarga, bazan pastliklarga in quradi.

Qirg'ovul 8 tadan tortib 19 tagacha tuxum qo'yadi. Tovuqqa o'xshab tuxumlarini yig'maydi va bu jarayon ancha uzoqqa cho'ziladi. 2 – 3 ta tuxum qo'yilgan inlarni may oyining o'rtalarida ham ko'rish mumkin. Qirg'ovul odatda bir marta tuxum qo'yadi, bordiyu biror sabab bilan tuxumidan ajralsa (masalan tuxumi suv ostida qolib ketsa), u holda ikkinchi bor tuxum qo'yadi. Lekin bunda tuxumlari soni 4 – 8 tadan oshmaydi. 24 kun deganda tuxumdan jo'ja chiqaradi.

Mabodo qirg'ovulning tuxumini olish zarurligi tug'ilib qolsa bunisi juda ehtiyotlik bilan yaxshisi qirg'ovul yo'q paytda olgan maqul. Chunki parranda 2 – 3 marta qo'rqitilsa yoki bezovta qilinsa, u inini tashlab ketadi.

Moda qirg'ovul tuxum bosib yotgan dastlabki besh kun davomida hxech qayoqqa jilmaydi, oltinchi kundan boshlab, faqat ertalablari bir oz vaqtga inini tashlab ketishi mumkin. Shundan keyin, taxminan 22 kungacha uzog'i bilan bir soat muddatga tashqariga chiqadi. Oxirgi ikki kun ichida xuddi dastlabki kunlardagidek inida qimirlamay yotadi. Bazida ertalab 10 – 15 minutgina inini tashlab ketishi mumkin.

Qirg'ovul tuxumini nihoyatda ehtiyot qiladi. Iniga biron dushman, chunonchi odam bostirib kelgudek bo'lsa, ustiga mahkamroq qapishib oladi, hech iloji bo'lmay qolgandagina nochor uchib ketadi. U yerdan ko'tarilarkan, tuxumlarini chor atrofga to'zg'itib yuboradi.

Makiyon vaqti – vaqti bilan tuxumni aylantirib turadi va bu bilan tuxumdagi haroratning mo'tadil bo'lishini taminlaydi.


Tuxumdan jo'jalar deyarli bir vaqtda chiqadi. Makiyon qirg'ovul jo'jalarining pati quriganicha inidan ketmaydi. Jo'jalar o'sgan sari ona qirg'ovul uzoqlarga ham ketadigan bo'ladi. 14 kundan keyin jo'jalar asta uchadigan bo'ladi. 50 kundan keyin esa bimalol parvoz qilaveradi.

Ovqati. Qirg'ovul ovqatining yaopranitini xashoratlar tashkil yetadi. Ular yozda chigirtka, beshiktervatar pashsha tutib yeydi. Kuzda esa pishiqchilik boshlanishi bilan tariq, sul, bug'doy, sholi kabi boshoqli o'simliklarga o'ch bo'ladi, shuningdek jiyda, chingil, maymunjonni ham yoqtiradi.

Qirg'ovul butun yoz davomida turli zararkunanda hasharotlarni qirib, qishloq xo'jaligiga ancha foyda keltiradi. Bordiyu ekinzor, masalan, bug'doyzorlarga kirib qolsa ham, yerga to'kilgan bug'doynigina terib yeydi.

Qirg'ovul kushandalari. To'qayzorlarning qalin bo'lishi hamda yantoq, chingil va mimizoga o'xshash o'tlarning chakalakzorlarga aylanib ketishi qirg'ovulning uchishiga xalaqit beradi. Bu esa uning kushandalari – chiyabo'ri, to'qayyallovsini, tulkilarga ham yem bo'lishiga qulay sharoit yaratadi.

Bulardan tashqari, bo'ktargi degan yovvoyi qush, ukki ham qirg'ovul jo'jasini yeydi. Ko'rinib turibdiki, bu parrandaning tabiiy dushmanlari aytarli ko'p emas va ular qirg'ovulning qirilib ketishiga unchalik ta'sir qilmaydi. Lekin daryo suvining birdan ko'payishi, sohillarni suv bosishi yoki yuvib ke-



tishi kabi tabiiy ofatlar oqibatida qirg'ovulning tuxumi va jo'jalar nobud bo'lishi mumkin. Qirg'ovulning kamayib ketishiga, hammadan ham mavsumi amal qilishmagan ayovsiz ov sabab bo'lmoqda. Parrandalar uchun yaxshi makon bo'lgan qamishzorlarni yoqish va to'qaylarni yo'q qilib tashlash ham qirg'ovulning kamayishiga olib kelmoqda. qirg'ovulning kamayishiga olib kelmoqda.

O'rta Osiyoda Qirg`ovulning tarqalish areali:

1. Uya qo'yishi, 2. Qishki uchrash joyi

Qirg`ovulni tutish.

Qirg`ovulni ko'paytirishni yo'llaridan biri uni sharoitga moslashtirishdir shu maqsadida respublikamizning ovchilik xo'jaliklari mart, aprel, sentyabr, oktyabr oylarida Sirdaryo va Angren daryolari yoqasidagi suv bosadigan o'tloq joylarda qirg`ovullarni tutishadi. Qirg`ovulni 10 – 15 sentyabrgacha ov qilmagan malum, chunki 'am uch oyga to'lmagan qirg`ovul jo'jalari tutqinlikda yashay olmaydi.

Qirg`ovulni qamishzor atrofi, jiydazor, butazorlarga yaqin qishloq xo'jalik ekinlari ekilgan va ariq, daryoga yaqin joylarda tutish oson.

Kuzda qirg`ovullar qayrda ko'p yig'ilganligi suv va ovqatga qatnaydigan yo'llarda, bahorda esa erkak qirg`ovullarni qichqirishidan bilib olish mumkin.

Qirg`ovullarni tuzoq bilan ovlash qadimdan bor. Bu usul juda oson va unumlidir, chunki bir kishi kuniga 150 – 200 ga yaqin tuzoq qo'yish mumkin. Lekin bu usulning bir kamchiligi bor. Agar ovchi tuzoqqa ilingan qushni darrov tutib olmasa, qush undan chiqib ketish uchun tipirchilashi va oqibatda oyog`ini mayib qilishi mumkin.

Qirg`ovullarni tomi qamish, tol va shunga o'xshash materiallardan nishab qilib yopilgan uyalarda ham tutish oson. Bunday uyalarni yasash uchun to'rtta qo'ziq kerak bo'ladi. Old tomonidagi ikkita qoziqqni er ustidan bir metr baland qilib qoqiladi, uning orqasiga qoqiladigan qoziq esa erdan 45 sm chi-qib turadi. Qoziqlarning orasi 2 m bo'lishi kerak. Uyaning tomi yuqorida

aytganimizdek, qamish, tolga o'xshagan narsalar bilan yopiladi. Shiyponin eslatadigan bunday uyaning osti o'tlardan tozalanadi va uyerga arpa, makkajo'xo-ri sepib qo'yiladi.

Uyani odamlardan panaroq joylarga qurish kerak. Atrofdagi uyadan har tomonga eni 20 – 25 sm so'qmoq qilinadi va don sepib qo'yiladi. Parrandalar so'qmoq yo'ldan donlarni terib eyish bilan ovora bo'lib, uyaga borib qolgani ni bilmay qoladi. Har bir uya oldiga 15 – 20 tagacha qirg'ovul yig'iladi.

Qushlar uyaga ancha o'rganib qolganlaridan keyin ularni tutish oson bo'ladi. Buning uchun uyani qoplaydigan (4 kv/m li) to'rning bir tomoniga taxta tortiladi. Shu taxta tirgavuch bilan ko'tarib qo'yiladi. Tirgovuchlarga boylangan ip ovchining bekinib turadigan joyigacha tortiladi. Uya ostiga 5 – 6 ta qush yig'ilishi bilan ip tortilsa bas, taxta erga tushib ketib qushlar to'r ichida qoladi.

Bunday uyalar, bir tomondan, qirg'ovullarning kuz, qish paytlarida ovqatlanishi uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, ularni tutishda qopqon vazifasi-ni o'taydi. Suv ichgani bogan, dalada va uya atrofida donlab yurgan qirg'ovullarni tutishda o'z – o'zidan yopiladigan qafas juda qo'l keladi. Qafas yengil (500 – 700 gramm) va uni o'rnatish ko'p vaqt talab qilmaydi. Bir kishi qushga 70 – 80 ta qafas o'rnatishi va uni kuzatib turishi mumkin. Qafasga tushgan qush deyarli shikastlanmaydi. Qirg'ovullarni va umuman qushlarni tutishda boshqa usullarga nisbatan qafas bilan qushlarni yil bo'yi ovlash mumkin.

Qirg'ovullarni tutishda bazan to'rdan foydalansa bo'ladi. To'r bilan kuniga 25 – 30 qushni tutish mumkin.

To'r qirg'ovullar ko'proq yig'iladigan chingil, jiyda butalar ostida kurilgan uya atrofidagi joylarga tutiladi. To'rning uzunligi 100 – 125 m, bandligi 3m va to'r orasi 40 x 40 mm bo'ladi. agar xo'jaliklarda tayyor to'r bo'lmasa uni qo'lda to'qish ham mumkin.

Qirg`ovulni to`r bilan ov qilishning eng qulay vaqti ertalab va kechqurun, parrandalar ovqatlanayotgan paytdir.

To`r o`rnatib bo`lingan, uning ikki ochiq tomonidan 4 – 5 kishi parrandalarni to`r ichiga joylaydi. Lekin bunda ehtiyotlik bilan harakat qilish kerak, aks xolda qushlar uchib ketishi ham mumkin. Qushlar bezovta qilinsa yashirinishga shoshiladi. Qushlarni shunday haydash kerakki, ular to`ppa – to`g`ri to`r tomon yo`l olsin. Mazkur usul bilan bir yo`la 6 – 8 qirg`ovul tujsa bo`ladi.

Qirg`ovulni ko`paytirish yo`llari.

Respublikamiz territoriyasidagi yovvoyi hayvonlar va qushlarning qirilib ketmasligi uchun hukumatimiz maxsus qonun chiqargan. Mazkur qonunda noyob va ayniqsa, qimmatbaho hayvonlarni ov qilish mumkindigi batafsil ko`rsatilgan.

O`rta Osiyoda ovlanadigan qushlar ichida qirg`ovul birinchi o`rinda turadi. So`nggi yillarda bu qush nihoyatda ko`p ovlanadi, shu sababli hamma yerda juda kamayib ketdi.

Qirg`ovulning kamayib ketmasligi va ovlanganlarining o`rnini to`ldirib turish uchun 30 – yillarda tuzilgan qo`riqxonalar hamda ovchilik xo`jaliklari aytarli tasir etolmadi.

Biroq 1937 – 1938 yillarda Qozog`istonda va 1938 – 1939 yillarda O`zbe-kiston territoriyasida qirg`ovulni ovlash butunlay taqiqlanishi bu qimmat-baxo qushlar sonining o`sishiga malum darajada tasir ko`rsatdi.

Qirg`ovullar asosan butazorlar va to`qayzorlarda yashaydi. Butasimon o`simliklar, asosan jiyda mevasi qirg`ovullarning kuz va qishda yeydigan asosiy ozuqasi xisoblanadi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, odam to`qayzorlarni o`zlashtirdi, daraxt va butalarni kesib o`tinga yoki qurilishga ishlatdi, o`tlarni o`rib oldi. Xullas to`qaylar yo`qola bordi, bazi joylardagi o`simliklar turi o`zgargan bo`lsa ham,

ayrim to'qaylar o'zlashtirib u yerlarda dexqonchilik qilina boshlaydi. Shu tariqa qirg'ovullar o'z makonlaridan asta – sekin ajrala boshladi.

O'rta Osiyoda tashkil etilgan xo'jaliklari va qo'riqxonalarda qirg'ovul-larni ko'paytirish hamda tarqatish uchun hamma shart – sharoit yaratib beril-gan edi. Bu xo'jaliklar 1957 – 1960 yillarga kelib turli qushlarni birmuncha ko'paytirdi. Zarafshon qo'riqxonasi va Sirdaryo ov xo'jaliklarida qisqa davr ichida qirg'ovullar soni tezdashib olib ketdi. Masalan, 1959 yili qirg'o-vullar soni 2 – 3 marta ko'paydi. Zarafshon qo'riqxonasida 1959 – 1960 yillar ichida 200 ta qirg'ovul ko'paydi. Sirdaryo ov xo'jaligida 1961 yili atigi 540 ta qirg'ovul bor edi, lekin bir yil davomida ular soni 1500 taga etdi.

Qishloq joylarida, bog` va polizlarga yaqin yerlarda qirg'ovullar kam uchraydi. Lekin bu sharoitlar qanchalik turli – tuman bo'lishidan qat'iy nazar, qirg'ovullarning yashashi uchun albatta suv manbai – daryo, ko'l, botqoqlik bo'lishi kerak.

Ko'pincha, qirg'ovul boshhoqli o'simliklarga zarar etkazadi, deb hisobla-shardi. Bir qancha omillar bu fikrni rad etishgan. Biz ham bir necha yil da-vomida qirg'ovullar hayot tarzini o'rgandik va ular mutlaqo boshhoqli o'sim-liklarga tegmay, balki yerga to'kilgan donlarni terib yeyishini kuzatdik. Paxta dalalarida esa, ular chigirtka va boshqa zararkunandalarni qirib qishloq xo'jaligiga ancha foyda keltiradi.

Qirg'ovullarning ko'payishiga ovchilik xo'jaliklarida amalga oshirilayot-gan bazi biotexnik yo'nalishdagi tadbirlar ham tasir ko'rsatmoqda. Bu tad-birlar, eng avvalo Respublikamiz hayvonot va o'simligini himoya qilish yirtqich qush va hayvonlarni otishdan iborat. Bundan tashqari, foydali qushlarning oziqlanishi uchun ular yeydigan o'simliklarni ekishi, don sepil-gan maydonchalar tashkil etilishi ham yaxshi natija bermoqda.

Malumki, yirtqich qush va hayvonlar chorvador xo'jaliklarga ko'p zarar etkazadi. Ayniqsa qish sovuq kelgan yillari yirtqich hayvonlar qo'tonlarga va hatto qishloqlarga ham bostirib kelishdan toymaydi. Shuning

uchun yirt-qich qushlar va hayvonlarni ovchilik xo'jaliklariga yaqinlashtirmaslik, ularni qirishda cho'ponlar, ovchilar va umuman tabiat ishqibozlari jonboz-lik ko'rsatishlari kerak.

Har bir ovchilik xo'jaliklarida ozuqa ekinlari ekiladigan bo'lishi kerak. Bu esa parrandalarning asosiy ozuqa manbaidir.

Har qanday qush o'zi yashaydigan joyda har doim, aniqsa qish va bahor oylarida ozuqa topa olmaydi, shuning uchun boshqa joylardan ozuqa qidirishga majbur bo'ladi. Buning oldini olish maqsadida, xo'jaliklarda har yer, har yerda ekin maydonlari tashkil qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Ozuqa maydonlarini katta yo'l va axoli turar joylaridan chetroqda qilgan maqul. Bunday maydonlar 3 – 4 gektar atrofida bo'lib, turli o'simliklarni aralash ekish mumkin, ekin maydonidagi hosilning bir qismi yig'ish-tirilib malum qismi dalada shundayligicha qoldiriladi. Yig'ib olingan hosil, qirg'ovullarni qishda boqishga ishlatiladi.

Ovchilik xo'jaliklarida o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, ozuqa maydonlari kichikroq, masalan 0,5 yoki 1 gektar bo'lib, xo'jalikning hamma yerida joylashganligi ma'quldir. Shunday qilinsa, parrandalar ekinlarni tez cho'qilab tashlamaydi hamda ular hamma yerda bir tekis tarqaladi.

Ozuqa maydonlariga jo'xori, mosh, arpa, bug'doy, tariq ekiladi. Qirg'ovul-lar jo'xori va mosh nish urishi bilan yeb tugatadilar, qolgan ekinlari va sabzini ko'p istemol qiladilar.

Xo'jaliklarda qish oylari parrandalarga qo'shimcha ozuqa berishidagi bio-texnik usul asosida olib boriladigan tadbirlar ahamiyatga ega. Bu tadbirga ko'ra, birinchidan qirg'ovullarni qishda ovqat topolmay nobud bo'lishini, ikkinchidan xo'jalik territoriyasidan boshqa yoqqa ketib qolishdan saqlash maqsadi ko'zda tutiladi.

Qirg'ovullarni qish oylarida ovqatlantirish uchun oxur qilinadi. Bu oxurlardan bahor va kuzda qirg'ovullarni tutishda foydalansa ham bo'ladi.

Qirg`ovullarni himoya qilishdagi tadbirlardan yana biri ixota maqsadla-rida buta va daraxtlar ekishdir.

Qirg`ovullar yashaydigan to`qayzorlar, ovchilik xo`jaliklari atrofga, masa-lan jarlik, tepaliklar, ko`l va daryo qirg`ovullariga daraxtlar ekiladi. Bunday tabiiy to`siqlar, bir tomondan qushlarni yovvoyi hayvonlardan himoya qilsa, ikkinchidan yer usti va tog` qoyalarida namini saqlab, qum bosishi hamda tog`dan sel kelishini to`sib qolish bilan qishloq xo`jaligiga foyda keltiradi.

Ixota maqsadida asosan daraxtlar va butalar uch qator qilib ekiladi. Eng oxirgi qatorga na`matak, chingil, tikanli o`simliklar qalin qilib ekiladi. O`rta qatorga daraxtlar bilan birga jiyda, maymunjiyda, do`lana kabi baland o`sadigan butalarni ekish kerak. Xullas ixota maqsadida ekiladigan da-raxt va butalar asosan mevasi bo`lishi kerakki, bularning mevasi qushlarga yem bo`ladi.

Shuni aytib o`tish kerakki, yuqorida aytilgan ozuqa maydoni tashkil qilish, ixota daraxti va butalar ekish uchun ortiqcha mablag` va mehnat sarf bo`lmaydi.

Kolxoz va o`rmon xo`jaliklari biotexnika tadbirlarni malga oshirishdan manfaatdor bo`ladilar xolos.

Chunki, qirg`ovullar bir tomondan, qishloq xo`jalik zarar kunandalarni qirib xosilning oshishiga yordam bersa, ikkinchidan, bu parranda chet el bo-zorida chaqqon o`tadi, bundan tashqari ovchilarimiz uchun ham yaxshilanishiga mashg`ulot hisoblanadi.

Har bir ovchi, o`rmon va ovchilik xo`jaliklari, fermer va uning ishchilari, shuningdek tabiatni sevuvchi har bir kishi foydali qushlarni, shular qatori qirg`ovullarning ko`payishiga va yashash sharoitining yaxshilanishiga jon kuydirmog`i lozim.

Qirg`ovulni sun`iy ko`paytirish

Yuqorida qirg`ovullarning tabiiy sharoitidagi yashash tarzi, urchishi, ko`payishni to`g`risida gapirib o`tdik.

Malum shart – sharoitlarni nazarda tutib, qirg`ovullar tabiiy suniy va aralash usul bilan ko`paytiriladi.

Qirg`ovullarni suniy usulda ko`paytiriladigan bo`lsa, har bir parrandadan 35 – 40 tagacha tuxm olish mumkin bo`ladi. jo`jalar esa yaxshi sharo-itda o`sadi. Jo`ja qirg`ovullar ikki oydan keyin, bu vaqtda ularga xaro-ratning o`zgarishi, yog`ingarchilik tasir etmaydigan hamda o`zlari mustaqil ovqat yeya oladigan bo`lganidan keyingina tutkinlikdan qo`yib yuboriladi. Bundan tashqari, qirg`ovul jo`jalarini boseradi, yani temir pan-jara bilan o`ralgan maydonda boqishning bir qancha qulay tomonlari ham bor. Masalan, bunda tuxum yig`ish tabiiy sharoitdagina qaraganda juda oson. Shu bilan birga, tuxumlarni yangilanishida va xoxlangan miqdorda yig`ib olish mumkin bo`ladi. Tuxumni uzoq masofadan tashishga hojat qolmaydi.

Qirg`ovullarni parvarish qilish.

Qirg`ovullarni parvarish qilinadigan qafasning katta – kichilikligi har xil bo`ladi. Sirdaryo ovchilik xo`jaligida qirg`ovullar kattaligi 40 x 14 m xajmidagi qafaslarda boqiladi. Qafas ichi bo`laklarga ajratilgan. Qafas uchun ishlatiladigan to`r simning oralig`i 20 x 20 mm dan katta bo`l-maslighi kerak. Xuddi shanday to`r sim bilan qafasning tepasi ham yopila-di. Bunday katta qafas ichida bir necha tup daraxt bo`lgani maqul.

Agar xo`jaliklar doimiy qafas ko`radigan bo`lsa, u holda yirtqich xayvonlar himoya qilish choralarini ko`rish ham nazarda tutilishi lozim.

Buning uchun qafaslar asosiga 30 – 40 sm chuqurlikda beton poydevor qilina yoki sim o`rin 50 sm chuqurlikka ko`miladi. Bu aytilganlarga amal qilingan holda qurilgan qafasdan yirtqich xayvon o`ta olmaydi.

Qirg`ovullarni oziqlantirish.

Qafasda boqiladigan qirg`ovullar ozuqasiga alohida ahamiyat berish kerak bo`ladi. qushlar yil davomida qafasda boqiladigan bo`lsa, ular nima berilsa shu bilan qanoatlanib qolaveradi. Shuning uchun qirg`ovullarga beriladigan ozuqa ular erkinlikda yeydiganiga muvofiq bo`lishi, boshqa-cha aytganda, tarkibida – uglevod, oqsil, vitaminlar, mineral tuz va mik-roelementlar bo`lgan to`yimli bo`lishi lozim. Bordi – yu ozuqa tarkibida biror zarur moddalar kamlik qilib qolsa, bu eng avvalo tuxum sifatiga, demak undan chiqadigan jo`jaga ham tasir etadi.

Qirg`ovullarga kuniga ikki marta – ertalab soat 7 – 8 larda xar xil aralash narsalar, kunning ikkinchi yarmida soat 17 – 18 da donli ozuqalar beriladi. Baxor va yoz oylarida, soat 12 – 13 da xar xil ko`katlar beriladi. Qirg`ovullarga go`shtli narsalarni qiyma qilib bersa ham bo`ladi. Qirg`ovullarozuqasida, ayniqsa urchish paytida, mineral va vitamini yetarli bo`lishi kerak.

Vitamin etishmasligi, ayniqsa „A” vitamining etishmasligi natija-sida tuxum avitaminoz kasalligiga uchraydi, va tuxumdan chiqqan jo`ja nimjon bo`ladi.

Qirg`ovullarni urchish paytida va tuxum qo`yadigan davrda undirilgan arpa yoki suli bilan boqish foydalidir. Chunki bu o`simliklar „E” vita-miniga boy bo`lib, bu moddalar parrandaning ko`payishiga va ko`proq tu-xum qo`yishiga yordam beradi.

Qushlar ozuqani parrandachilik xo`jaliklarida tovuqqa don beriladi-gan yog`och novlarda bergan maqul, suv hamisha toza bo`lishi, agar imkon bo`lsa, avtopalka, sirlangan yoki alyumin novda berish kerak.

Qirg`ovullar aprel oyidan boshlab urchiydi. Shuning uchun mart oylaridanoq xa bir katakka bitta erkak, 4 yoki 6 tadan moda qirg`ovul joylash-tiriladi.

Ochiq joyda yurgan urg`ochi qirg`ovul odatda in qurmay duch kelgan joyga tuxum yig`ishga to`g`ri keladi. Aks xolda, tuxum sinishi, iflos bo`lishi yoki qirg`ovullarning o`zi cho`qib tashlashi mumkin.

Maxsus qilingan inlarga 1 – 2 ta tuxum tashlab qo'yilsa moda qirg'ovul shunga qo'nib tuxum qo'yaveradi.

Tuxumni yig'ish va saqlash ham nozik ish. Tuxum maxsus savatlarda yig'iladi, xar bir tuxumga yig'ilgan vaqti va qaysi volerdan olingani yozib qo'yiladi. Bunday yozuv yomon tuxum qo'yadigan qirg'ovulni aniqlash, tuxum qanday saqlanayotganligini kuzatib borish, xar bir voleradagi tuxum-larning sifatini belgilashga yordam beradi.

Tuxumga qora qalam bilan belgi qo'ygan maqul. Bordiyu, jo'ja ochilishga qo'yilmoqchi bo'linsa, tush bilan yozish kerak.

Tuxum salqin, shmollatib turiladigan va yetarlicha namli bo'lgan xonada saqlanadi. Bunday xonaning xarorati 7 – 12 daraja issiq, namligi 70 prosent bo'lishi lozim. Tuxumni maxsus tuxum idishga bir qator qilib teriladi yoki maxsus teshigi bo'lgan shkaflarda saqlanadi. Uch tomoni pastga qaratib qo'yiladi. Agar tuxum 3 – 4 kundan ortiq saqlanadigan bo'lsa, xar kuni „oyog'ini osmonga“ qilib ag'darib turish kerak, aks xolda sarig'i pastga cho'kib, po'choqqa yopishib qolishi mumkin. Bunday tuxumdan jo'ja chiqmaydi.

Tuxumni kul yo bo'lmasa qipiq orasida saqlash mumkin emas. Chunki tuxum po'stlog'i teshikchalariga qum yoki qatron moddalari tiqilib qoladi.

Bordiyu tuxumni uzoq saqlanib undan keyinchalik jo'ja ochirish mo'l-jallangan bo'lsa, tuxumni xar kuni 20 – 30 minut davomida 37,6 – 38 daraja xaroratda isitib qo'yish kerak bo'ladi. bunday temperatura ona qir-g'ovulning tana xaroratiga mos keladi. Tuxum isitib turilsa uning ikku-bastion sifati yaxshilanadi. Bu tadbir tuxumning tabiiy sharoitda saqlanganday xolatga keltiradi.

Qirg'ovul tuxum qo'yib bo'lgan bo'lnach, malum vaqtgacha dastlabki tuxumi ustida o'tirib isitib turadi. Inkubator bor joylarda bu ish, yani tuxum isitish stnchalik ko'p vaqtni talab qilmaydi jo'ja ochiriladigan tuxumlarni yaxshi saqlash uchun tuxum saqlanadigan joyning xaroratini muntazam kuzatib borish lozim. Me'yoridan ortiq issiq ham, sovuq ham jo'ja ochirish uchun

saqlanayotgan tuxum sifatiga keskin tasir etadi va oqibatda pusht nobud bo'ladi. xarorat yuqori bo'lsa, tuxumdagi nam tez bug'lanib, parda qilib qoladi va oqsilning fizikaviy xossalari, qayish-qoqligi va zichligi o'zgaradi. Oqibatda rivojlanayotgan pushtda modda al-mashinuvi qiyinlashadi va ko'p xollarda nobud bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim muloxazalar 20 – 21 gradus issiqda pusht sekin rivojlanadi, lekin bu rivojlanish normal bo'lmay oqibatda u nobud bo'ladi, deb aytilish moqda. Yuqori temperaturada ham tuxum sarig'ida fermentativ va ximiyaviy jarayonlar ro'y berishi oqibatida sariq moddaning tarkibi buziladi.

Uzoq vaqt yuqori xaroratda saqlagan tuxum ochirishga qo'yilganda pushtetorli darajada rivojlanmaydi yoki o'sishdan butunlay to'xtaydi.

Tuxum saqlanayotgan xonadagi havoning nisbiy namligi ham tuxum ochirishga tasir qiladi. Havoning nisbiylanishi ham tuxumga nisbiy nam-lik odatda Asmon psixrometri bilan o'lchanadi.

Tuxum saqlanayotgan joyda gaz almashinuvi jarayoni yaxshi kechishi uchun xona shamollatib turilishi kerak. Tuxum saqlanayotgan xonani har kuni yaxshisi erta bilan va kechqurun shamollatgan ma'qul. Qirg'ovul tuxumini kechi bilan ikki hafta saqlash kerak. Bordiyu, bu muddatdan ko'p. Masalan 20 kun saqlansa jo'ja ochirish 16 prosent 24 kun saqlansa 23 prosent va 40 kun saqlansa 30 prosent kamayib ketadi.

Tuxum saqlash uchun bunday cheklangan muddat qo'yilar ekan, nima uchun tabiiy sharoitda, uyada tuxumning inkubatsi sifatini uzoq vaqtgacha buzilmay turadi, degan savol tug'iladi. Masalan, qirg'ovul o'rta hisobda 10 – 13 tadan tuxum qo'ysa, tabiiy sharoitda bu tuxumlarning 93 – 95 prosentidan jo'ja chiqadi. Bunda qirg'ovul modasi har gal yangi tuxum qo'yilgandan keyin oldingilarini qisqa vaqt bo'lsa ham isitib turishi katta rol o'ynasa kerak.

Katta qirg`ovullar uchun ozuqa rasioni

№	Nomi	Bir bosh qirg`ovulga bir sutkada beriladigan ozuqa (grammlarda)			
		Qish	Bahor	Yoz	Kuz
1	Qora non	20	20	20	20
2	Suli	20	20	20	20
3	Tariq	25	25	25	25
4	Kepak	2	2	2	2
5	Krupa	15	15	15	15
6	Nasha urug`i	1	-	-	1
7	No`xat	-	5	-	5
8	Go`sht	5	8	5	-
9	Tovuq tuxumi	-	2	1	-
10	Baliq uni	2	3	-	2
11	Sabzi	10	20	20	20
12	Klyukva	5	5	-	-
13	Pomidor, o`t	-	30	30	-
14	Karam	-	10	10	-
15	Kartoshka	-	-	5	5
16	Piyoz	-	3	-	3
17	Achitqilar	2	3	-	2
18	Baliq moyi	1	1	-	1

19	Bo'r	1	1	-	1
20	Maydalangan suyak	0,5	0,5	0,5	0,5
21	Osh tuzi	0,25	0,25	0,25	0,25

Tuxum qo'yish davrida qirg'ovullar uchun ozuqa rastioni (qirg'ovul ko'paytirish uchun rumin mutaxassislari tavsiya etgan rastion bir sutka gramm hasobida)

№	Nomi	miqdori	№	Nomi	Miqdori
1	Jo'xori bo'tqa	23,5	14	Go'sht	1,75
2	Bo'ktirilgan suli	2,5	15	Sut	0,75
3	Arpa	1,75	16	Qon	0,75
4	Kungaboqar	2,2	17	Baliq moyi	0,35
5	Kartoshka	3,5	18	Zig'ir urug'i	0,7
6	Maydalangan suyak	7,0	19	Soya	0,7
7	Bug'doy	1,75	20	Yo'ng'ichqa uni	2,1
8	Suli	2,1	21	Bo'r	0,7
9	Javdar	1,75	22	Pista ko'mir	0,7
10	Jo'xori	3,5	23	Har xil ko'katlar	0,7
11	Tariq	2,1			
12	Shebennik bargi	2,1			
13	nasha	1,75			

Yoshi (kun hisobida)	Oziqlantirish miqdori	Soatlar
1 dan 21 gacha	5	8,10,13,19,19
22 dan 68 gacha	4	8,11,15,48

64 dan 98 gacha	3	8,13,18
-----------------	---	---------

Jo'ja ochirish

Jo'jalar inkubatorlarda ochirish yoki tuxum kurk tovuq yoki bo'lmasa kurkaga bostiriladi. Qirg'ovul tuxumini ochirish uchun inkubastiyaning turli rejimlaridan foydalaniladi.

1. Inkubastiyaning boshlanishidan oxrigacha xarorat 37,5 daraja issiq, 64 – 65 prosent nisbiy namlik.

2. Inkubastiyaning 1 – 18 kunlari davomida xarorat 38 darajadan biroz bo'ladi, keyinchalik 37,7 darajagacha pasaytiriladi. Dastlabki ikki hafta ichida nisbiy namlik 70 prosent, hatto undan kamroq bo'lishi mumkin.

3. Xarorat 38 – 39 daraja atrofida bo'lib, nisbiy namlikni birinchi besh kunda 60 prosentgacha, 13 -14 kunlarga kelib 80 prosentgacha oshiriladi.

Qirg'ovul tuxumini ayrish rejimi turli – tuman bo'lishi, bir tomondan inkubatorlar tuzilishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan qirg'ovul tuxumini inkubatorlarda ochirish usuli ham uzil – kesil ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, tovuq tuxumigi ochirishda qo'llaniladigan rejim: xarorat 37,5 – 37,7 daraja va 49 – 51 prosentdagi namlik sharoiti qirg'ovul tuxumini ochirish uchun juda qulaydir. Jo'ja ochirish tuxumgi sovutib turish ham yaxshi tasir ko'rsatadi. Shuning uchun inkubastiyaning yettinchi kundan boshlab inkubatorni har kuni bir marta shamolatib turish lozim.

Tuxumni sovutishdan maqsad shuki, tuxumdagi harorat pasayishi bilan, undagi suyuqliklar o'zidan ancha miqdorda gazni suyultirib embrionning o'sishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Tuxumdagi harorat pasayishi bilan

po'chog'i teshigidan harot o'tishi osonlashib tuxumdagi moddalamashinuv jarayonini tezlashtiradi.

Yuqorida aytganimizdek, jo'ja ochirish uchun qo'shilgandan keyin ettinchi kundan boshlab tuxumni sovutish kerak. Chunki shu vaqt ichida tuxumda doimiy xarorat zarur bo'ladigan jarayonlar kechadi.

Tuxumni sovutish uchun xavoga oli chiqiladi. Tuxum solingan lotokni shunday qo'yish kerakki uning hamma tomonidan shamol esib tursin. Lekin tuxumga quyosh nuri tushmasin.

Inkubastiyaga qo'yilgan tuxumlarning hammasidan jo'ja ochib chiqishi uchun biologik tekshiruv o'tkazib turiladi. Bunday tekshiruv tuxumni iboratdir.

22 – kuni tuxumni yana bir marta yorug'ga solib ko'riladi va urug'lanmagan yoki pushti rivojlanmay qolgan tuxumlar bo'lsa olib tashlanadi. Push-ti yaxshi rivojlangan tuxumlarni maxsus latokka yig'iladi. Inkubatorga quyilgan tuxum undagi issiq tufayli qo'rishdi.

Jo'ja ochirish uchun tanlangan tuxumlarni inkubatorga qo'yishdan oldin va inkubatorga qo'yilgandan keyin, 6, 9, 12, 15 va 20 – kunlari tortib ko'riladi.

Inkubastiyaning 20 – kuniga kelib tuxum dastlabki vazniga nisbatan 11 – 15 prosent engillashadi. Tuxum vaznining kamayishi pushtning rivojiga salbiy tasir etadi. Agar tuxum qurib qolsa, inkubatoridagi namlik oshiriladi.

Tuxumni tortish ishi uncha murakkab emas. Odatda tuxumlarni bir tartibda terilgan lotok bilan birga tortiladi.

Jo'ja ochib chiqish uni yaqinlashgan sari pamini oshirib borgan mavul. Agar inkubatorga yangi tuxumlar qo'yilgani pamlikki oishrish mumkin bo'lmasa, u xolda etilib qolgan tuxumlarga vaqti – vaqti bilan iliq suv purkab turish yoki namlangan doka yopish qo'yish kerak.

Qirg'ovul jo'jalari ochib chiqqandan keyin ham to quriguncha inkubatorida turaveradi. Lekin jo'jalarning uzoq vaqt qolib ketishi yaramaydi.

Chunki organizmdagi namni yo'qotilishi ularning xolatiga yomon tasir etishi mumkin. Tuxumdan chiqqan jo'jalar aloxida yalikka olinadi va boshqa maxsus issiq xonaga qo'yiladi.

Jo'jalarning tuxumdan yorib chiqishiga yordam bermaslik kerak. Bunday jo'ja bari bir uzoq yashamaydi.

Tuxum bostrishga ajratilgan parrandalar uchun aloxida – aloxida yo bo'lmasa 3 – 4 tasiga bitta in qurishadi. Inlar buning uchun ajratilgan maxsus bonoga qo'yiladi. Bino albatta shamollatib turilishi kerak.

Issiq kunlari, shuningdek tuxumdan jo'ja ochib chiqishmdan bir necha kun oldin namlikni oshirish maqsadida in atrofiga suv sepish tavsiya etiladi.

Kurk parrandalarga xar kuni birmarta don beriladi. Ularni tuxum bosgan birinchi kunlari 10 – 15 minut. Oxirgi kunlari esa bir soatcha in-dan chiqariladi.

Kurk parrandalar bosib yotgan tuxumlarni xuddi inkubatordagina o'xshash tekshirib ko'riladi. Bordi-yu palag'da tuxum bo'lsa, uning o'rnini to'l-dirish uchun boshqa parranda ostidagi tuxum olib qo'yiladi. Shunday qi-lib, ettinchi, kunga kelib bir – ikki parranda bosib yotgan tuxum boshqalari ostida palag'da bo'lganlari o'rniga ko'lladi, bularga ega yangi tuxum bostiriladi, 2 – kunga kelib tuxumlardan jo'ja ochib chiqib boshlaydi. Tuxumdan yangi chiqqan jo'jalarni parvarish etish xuddi inkubatorda ochilganga o'xshash bo'ladi.

Tuxumdan chiqqan jo'jalarni kurk parrandadan ajratib olinadi, lekin eng oxiri chiqqan bir – ikkita jo'ja onasi bilan qoldirmadi.

Inkubatorda ochilgan qirg'ovul jo'jalari odatda ona qirg'ovulsiz parvarish qilinmoqda. Italiyaning Milan shaxrida yaqin shaxriga yaiqn Portalunedagi parrandachilik fermasida xar yili 150 ming dona qirg'ovul tuxumi olinadi, shularning uchdan bir qismi inkubastiya qilinib, 50 ming dona qirg'ovul ochiriladi. Jo'jalar agar sovuq qotsa qafas ichidagi yopiq

xonaga kirib isinadi, keyin yana sayr qilgani chiqadi. Elekt „enaga” lar ko’chma bo’lgani makul, ularni o’t o’sgan joyga ko’chirib turish oson bo’ladi.

Qirg’ovul jo’jalarini parvarish qilishda ularni ovqatlantirish mu-xim ahamiyatga ega.

Tuxumdan yangi chiqqan jo’jalar birinchi sutka xech narsa emaydi, ularning qorin bo’lishlig’idagi ovqat zapasi bir kunga etadi.

Yuqorida aytilganidek, qirg’ovullar ozuqasi turli – tuman bo’lishi kerak. Qirg’ovullar tabiiy sharoitda asosan xasharotlar bilan oziqlanar ekan, demak ular ozuqasi tarkibida xayvon oqsil ko’p bo’lishi lozim.

Suniy parvarish qilinayotgan qirg’ovul jo’jalarining sog’lom o’sishi va tez etilishi uchun ular ozuqasida tuxum, go’sht, sut, tvorog, chumoli g`um-bagi va boshqa shunga o’xshash narsalar bo’lgani ma’qul.

Chumoli g`umbagi qirg’ovul jo’jasining yaxshi ko’rgan luqmasi xisoblana-di.

Jo’jalar orasida mineral moddalar etarli bo’lishi uchun bo’r, qal’ystiy fosfat, maydalangan suyak va boshqa narsalarni qo’shib berish lozim. Bazi qushshunoch olimlar yaqinlargacha. Qirg’ovul jo’jasi ozuqasida chumoli g`um-bagi bo’lmasa yaxshi o’smaydi, deb xisoblashardi. Ko’pgina omillar, chumoli g`umbagi o’rniga boshqa ozuqa moddalar: go’sht, chuvalchanglar bilan almash-tirib oziqlantirishi tajribada sinab ko’rdilar.

Jo’jalarga beriladigan ozuqalar, ayniqsa tuxum, go’sht, sut maxsulotla-ri xar doim yangi bo’lishi lozim.

Quyida qirg’ovul jo’jalarini xayotining dastlabki kunlaridan to 3 yarim oygacha necha marta ozuqlantirish rastionali bor.

Jo’jalar uch oylik bo’lganidan keyin ham agar ona qig`vul bo’lsa qaasda parvarish qilinaveradi yoki baxorgacha uychalarda, yani urchitish vaqtiga-cha boqilib keyin erkinlikka chiqarilib yuboriladi.

Erkinlikka chiqarib yuborilgan parrandalar sharoitga tez moslashadi.

Agar jo'jalar ko'chma uychalarda ona qirg'ovul bilan parvarish qilinayotgan bo'lsa, ularni erkin sharoitga asta – sekin o'rgatiladi. Keyin ular sha-roitga yaxshi moslashib olgach onadan ajratiladi. Uycha yoki panjara to'siq joyida qolaveradi, uning oldiga esa g'ov qilinadi.

Agar jo'jalar ko'lda parvarish qilinayotgan bo'lsa, ular o'zlarini o'nглаb olib suniy issiqqa muxtojlik qolmagach, ochiq joyga o'rnatilgan oldi to'r sim bilan o'ralgan uychaga o'tkaziladi. Bu sharoitga ko'nikkach, jo'jalar qafasdan chiqariladi.

Qafasdan chiqqan qirg'ovul jo'jalaritezda yovvoyilashadi. Bu parrandalarni noyabr oyidan boshlab to dekabrning oxirigacha ov qilish mumkin bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan, qirg'ovullarni suniy ko'paytirish usullari-dan qaysi birini O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin? Bizning fikri-mizcha, O'zbekistonda, shuningdek O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida ham qirg'ovullarni ko'paytirish ikki yo'nalishda olib borilishi lozim. Eng avvalo, respublikamizda 1 – 2 ta yirik qirg'ovul fermalari tashkil qilinib, ular barcha ovchilik va o'rmon xo'jaliklariga qirg'ovullarni ov qilish muddatigacha etkazib bera oladigan bo'lsin. Agar shunday qilinsa zarur miqdordagi qirg'ovullarni tonnalari arzon tushadi. Lekin, yirik xo'jaliklarni tashkil etish uchun vaqt va mablag' kerak bo'ladi.


Xozir shunday qirg'ovul fermalari tashkil etilmoqda. Shu bilan birga ayrim ovchilik xo'jaliklarida 30 – 50 bosh qirg'ovul bo'lgan kichik fermalar tashkil qilib, tuxum olish va joyining o'zida jo'ja ochirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

200 va undan ortiq qirg'ovulni bo'lgan yirik xo'jaliklarda esa tuxumni inkubatorida ochiribYu xo'jaliklarni suniy parvarish qilish mumkin.

O'rta Osiyoyoda mavjud bo'lgan barcha parrandachilik xo'jaliklarni qirg'o-vulga e'tibor berishlari, uning bexuda qirilib ketmasligi yo'lida g'am-xo'rlik qilishlari kerak. Buning uchun avvalo, bu qushning oz –

ko'pligini aniqlash maqsadida xisobini olish, tabiiy ko'payishi moslasini o'rganib chiqib, uni ov qilish muddati va miqdorini belgilash, ayrim qirg'ovul turlarining yashashi va ko'payishi uchun mos keladigan maydon tanlash kabi vazifalarni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga. Bu jonivorni qo'lga o'rgatish, yani uyda yoki maxsus fermalarda boqib ko'paytirish masalasi ham eng zaruriy masalalardan xisoblanadi.

O'rta Osiyoda, jumladan respublikamizda yirik qirg'ovul xo'jaliklari tashkil etilsa, bu xo'jaliklarda o'z kasbini ap ishining sevadigan xodim-lar jonbozlik ko'osatsa o'lkamiz yana qirg'ovullar makoniga aylanadi. Axir parrandalarni ettia xazinaning biri deb, bejiz aytmaganlar. Qir-g'ovul ham, agar unga yaxshi e'tibor berilsa, qoidga amal qilib va belgi-langon muddatlardagina ov qilinsa, respublikamiz boyligiga boylik qo'-shadigan manba, qirg'ovul ovi esa tabiat ishqibozlarining eng sevimli mashg'uloti hamda xordiq chiqarish vositasiga aylantirishi mumkin.



1- Расм Географик алохидаланиш Қирғовулнинг кенжа турлари
1-етти сой 2- кавказ 3-мурғоб 4-япон 5-хива 6-манжур

Xulosalar

Malumki qushlar umurtqalilar orasida pat – par bilan qoplangan, anotomik, morfologik tuzilishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan uchuvchi hayvonlardir. Bu sinfdagi turlar – xilma – xilligi ancha ko'p bo'lib (8.600) umurtqalilar orasida baliqlqardan keyin ikkinchi o'rinda tu-radi. Qushlar sinfining xozirgi yao'ab turgan taksonlari, ularning vakil-lari xaqiqiy (tipik) qushlar kenja sinfiga mansubdir, ularning bir ne-cha katta turkumlari va 35 – 40 ta turkumi mavjud. Ana shu turkumlar orasida tovuqsimonlar o'ziga xos morfologiyasi, tarqalishi, biologik xusu-siyatlari bilan ajralib turadi.

Tovuqsimonlar turkumi qushlarning qadimgi guruxi bo'lib uning va-killari Er shari bo'ylab keng tarqalgan, o'ziga 250 ta turni va ko'plab ken-ja turlarni birlashtiradi. Tanasining vazni MDX xududida 80 – 120 grammdan (bedona) to 60 kg (kaklik) gacha keladi.

MDX da bu turkumning 20 turi, O'zbekistonda 7 turi yashaydi (ular, kak-lik, kirokutkalar (cho'l, ko'k, Mo'ylovli), bedana, qirg'ovul). Ana shu turlar orasida tarqalishi sonini ko'pligi va bir qator biologiyasi, xo'jalik axa-miyati jixatidan ishda keltirilgan turlar – kaklik, bedona, qirg'ovullar aloxida e'tiborga loyiq.

Kaklik tog'larda yashovchi qush. Vazni 370 – 770 gramm. O'tloq, ko'chmanchi xolda yashaydi. Sport ovi ob'ekti xisoblanadi. Ovchilik xo'jaliglarida ko'paytirilimoqda. O'zbekistonning cho'l zonasi tog'larida soni kamaymoq-da. Uni ovlash jadallashgan. Ovlashni ilmiy – xuquqiy jixatlari o'rga-nilishi lozim.

Bedona – tovuqsimonlar turkumining eng kichik vakili. Vazni 73 – 134 gramm. Nuqul erda yashaydi, xavoga kam ko'tariladi. Uskarativ qish xisob-lanadi. Yana uni ovlanadigan tur deb ham xisoblash mumkin. O'zbekiston-da tekislik va tog'larda tarqalgan. Cho'l zonasida uya

qilmaydi. Bularda migrastiya paytida ko'p bo'ladi. Tog`, tog`oldi rayonlarida uya ham qiladi.

Qirg`ovul bizning mamlakatda 6 ta kenja tur shaklida tarqalgan. Bularga Zarafshon, Amudaryo, Xiva, Sirdaryo, Ettisoy qirg`ovullarini kiritish mumkin. Qirg`ovullar o'troq xayot kechiradi. Poligam tur xisoblanadi. Kenja turlarning tarqalishi, soni xar xil. Bizning Buxoro viloyatida Zarafshon qirg`ovuli kenja turi yashaydi. Bu kenja tur O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan. Ammo keyingi yillarda regionda uning osni ortib bormoqda. Buni qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini o'zlashtirish bilan kimyoviy moddalarni ishlatilishini kamayganligi bilan bog'lash mumkin. Extimol bu qushni qizil kitobdan chiqarsa ham bo'ladi. uni ko'paytirishning ilmiy – biotexnik jixatlari ishlab chiqilishi va malum kvatada ov qilinishi yo'lga qo'ysa ham bo'ladi.

Ishda keltirilgan tovuqsimonlar – ovlanadigan qushlar. Ular yana qishloq xo'jaligiga zarar keltiruvchi xasharotlarni ham qo'plab eb foyda keltiradi. O'zbekistonda tovuqsimonlar turkumi vakillari xayotini o'rganish shu asosda ularning sonini ko'paytirish va ulardan oqilona foydalanish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azimov J. A. Va boshqalar O'zbekiston Respublikasining „Qizil kitobi“ II – tom Hayvonlar. Toshkent 2003 y.
2. Baqoev S. B. Inventorizatsiya ornitofauna Vordazinskogo zopovedika.
Polojenie ikrotokoeы za sedanie prezidiuma geogr, komis, po zopovedinka terri toriya Kazaxstani i Sr. Azii. Alma Ate 1984. s. 9 – 11 s.
3. Baqoev. S. B, Salimov. X. V. Materiali po biologii Zarafshanskogo Fazana. Tam. Alma – Ate. 1985. 7 – 12 s.
4. Baqoev. S. B. Ekologiya i voprosы oхраны Zarafshanskogo Fazana, V. oхrana jivoy prirodi. Moskva 1983. 17 – 19 s.
5. Zohidov. G. Z. Zoologiya ensiklopediyasi Qushlar. Toshkent. Fan. 1979. 6 – 127 b.
6. Konstantinov. A. M. idr. Zoologiya pozvonochных. Moskva „Oradga” 2001
300 – 314 s.
7. Kashkarov D. Yu. Mo'minov. B. L. Biologik xilma – xillik: Atama va ta-riflar. Toshkent „Chinor ENK” 2002. 3 – 35 bet.
8. Meklenburstev R. N. Idr. Ptisty O'zbekistana 1 – tom. Tashkent „Fan” 1987 247 – 273 s.
9. Mixeev A. V. idr. Otryad. Kuroobraznie. V. ki „Jizn jivotnix tom. 6

ptisty ”. Moskva. „Proeveshenie” 1986. s. 172 – 184.

10. Mekmn Burstev R. N. Material po mazemivigi pozvonochivim bosseytir

–

Kashkadarı . Trudy SAGU, vil – 130 biol. naukie – 30. Toshkent 1958
1 – 140 s.

11. Mavlonov. O. Zoologiya. 6 – 7 sinflar uchun darslik. Toshkent
„O’qituvchi”

2001. 140 – b.

12. Xolmuhammadov. K. L. Novikov Qirg`ovul. Toshkent „Fan” 1982. 3 –
26 b.

13. Rustamov A. K, Kovsher B. Ptisty Sredney Azii. Tom – 1. Almatov,
2007. 287 – 303, 327 – 335 S.

14. Ostanenko M. M, Nazarov A. P. Otryad. Kuroobraznie V Kn. Ptisty
O’z-

bekistana 1 – tom. Toshkent, „Fan”, 1987. 247 – 173 s.

15. Stepanyan. L. S. Sostav i raspredelenie ptist Fauny SSSR. Nevorob-
inye. Moskva, „Nauka”, 1975. 369 s.

Qirg`ovul biologiyasiga doir ayrim ma’lumotlar

T/R	Kenja tur nomi	Soni 1 km²	Umumiy soni	Bir uyadagi tuxum soni	Birinchi jo'ja chiqish muddati	Jo'ja soni
1	Amudaryo qirg`ovuli	50	15000	9-24	8.06.	5-9
2	Tojik qirg`ovuli	21,4- 150	20000	6-14	10.05	4-9
3	Xiva qirg`ovuli	-	-	16-19	27.05	10
4	Zarafshon qirg`ovuli	40- 110	12000	4-16	10.05	6-12
5	Sirdaryo qirg`ovuli	64- 100	10000 √15000	5-14	20.05	4-7
6	Ettisoy qirg`ovuli	-	2000	-	-	-
	O`rtacha	70,5	991000	12,1	may	7,3